

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**DIN SOHASIDAGI MA’NAVIY-MA’RIFIY, TA’LIM ISHLARINI VA FAOLIYATNI
YANADA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY KO‘MAK VA IMTIYOZLAR BERISH
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolar kengashining islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini asrash, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni diniy aqidaparastlik va ekstremizm xatarlaridan himoya qilish bo‘yicha murojaati va bir qator jamoat tashkilotlarining takliflarini inobatga olib, mamlakatimizda ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, muqaddas dinimizni soxtalashtirishga urinayotgan turli mutaassib kuchlarning yovuz harakatlari oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning hayotiy ahamiyati va ta’sirchanligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston musulmonlari idorasi, mutasaddi va daxldor jamoat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy va ta’lim ishlarini takomillashtirish dasturi (1-ilova*) ma’qullansin. Tegishli davlat idoralari va mahalliy hokimiyatlar tomonidan Dasturni bajarilishiga yetarlicha ko‘mak va yordam berilsin.

** 1-ilova berilmaydi.*

2. Dasturdagi tadbirlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashining tarkibi 2-ilovaga* muvofiq ma’qullansin.

** 2-ilova berilmaydi.*

Oldingi tahrirga qarang.

(2-bandning ikkinchi xatboshi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 7-avgustdagi PQ-938-sonli qaroriga asosan chiqarilgan)

3. Diniy tashkilotlardan kommunal xizmat (gaz, suv, elektr haqi va boshqa xizmatlar) uchun olinadigan to‘lovlarni ishlab chiqarish korxonasi darajasi o‘rniga jismoniy shaxslardan olinadigan miqdorda belgilash haqidagi O‘zbekiston musulmonlari idorasining murojaatini qondirish yuzasidan 10 kun muddat ichida Vazirlar Mahkamasining **farmoyishi** qabul qilinsin.

Buning natijasida hosil bo‘lgan va boshqa xayriya mablag‘larini mazkur jamg‘arma hisobiga o‘tkazish, uni O‘zbekiston musulmonlari idorasi tizimidagi masjid-madrasalarni ta’mirlash, diniy ta’lim muassasalarining o‘quv va moddiy bazasini mustahkamlash, ularga zamonaviy shart-sharoit yaratish, o‘qituvchi-mudarris va imom-xatiblarning mehnatini rag‘batlantirish ishlariga sarflanishi nazarda tutilsin.

4. Madaniy meros obyekti sifatida davlat ro‘yxatiga olingan diniy obidalar (3-ilova) belgilangan tartibda joylardagi Madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish inspeksiyalari bilan tuzilgan Foydalanish va muhofazalash shartnomalari asosida O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufiga foydalanish uchun berilsin hamda to‘planadigan xayriya mablag‘larining maqsadli ishlatilishi yuzasidan nazorat o‘rnatilsin.

5. Islom ma’hadlari va o‘rta maxsus islom bilim yurtlarida joriy etilgan ta’lim standartlari, o‘quv rejalari hamda talabalarning qabul qilingan davlat me’yorlariga muvofiq diniy va dunyoviy bilimlar olayotganini inobatga olib, mazkur o‘quv yurtlarining bitiruvchilariga beriladigan diplomlar davlat ta’lim hujjati sifatida e’tirof etilsin hamda ana shu hujjat (diplom)larga ega bo‘lgan shaxslarga davlat oliy ta’lim tizimida o‘qishni davom ettirish huquqi berilsin.

6. Matbuot va axborot agentligi (R. Shog‘ulomov), “O‘zteleradio” kompaniyasi (A. Ko‘chimov), O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (M. Hazratqulov), respublika ommaviy axborot vositalariga Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy va ta’lim ishlarini takomillashtirish dasturida belgilangan tadbirlarning mohiyati va ijrosini yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi Z. Husniddinov va Bosh vazir o‘rinbosari H.Karomatov zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2003-yil 22-avgust,
364-son

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil
22-avgustdagi 364-son qaroriga
3-ILOVA

**Madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish inspeksiyalari bilan tuzilgan
“Foydalanish va muhofazalash shartnomalari” asosida O‘zbekiston musulmonlari idorasi
tasarrufiga foydalanish uchun berilayotgan ziyoratgohlar**

№	Ziyoratgoh nomi	Manzili
1.	“Imom Buxoriy” majmuasi	Samarqand viloyati, Payariq tumani, Xo‘ja Ismoil qishlog‘i
2.	“Hakim Termiziy” ziyoratgohi	Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Ko‘hna Termiz qishlog‘i
3.	“Abu Iso Termiziy” maqbarasi	Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, U.Turopov jamoa xo‘jaligi
4.	“Imom Moturidiy” ziyoratgohi	Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Chokardiza qabristoni
5.	“Shohi Zinda” majmuasi	Samarqand viloyati, Siyob tumani, Usto Umar Jo‘raqulov ko‘chasi
6.	“Sohibi Hidoya shahristoni” ziyoratgohi	Farg‘ona viloyati, Rishon tumani, Chin nigoron mahallasi
7.	“Qosim Shayx” majmuasi	Navoiy viloyati, Karmana tumani, Karmana ko‘chasi
8.	“Chil ustun” va “Ko‘k gumbaz” masjidlari	Navoiy viloyati, Nurota shahri
9.	“Xo‘ja Jarroh” ziyoratgohi	Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Xudoyzod mahallasi
10.	“Dorus-Siyodat” me‘moriy majmuasi	Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri
11.	“Shayx Xovandi Tohur” majmuasi	Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Shayxontohur tor ko‘chasi
12.	“Takiya ota” ziyoratgohi	Surxondaryo viloyati, Qiziriq tumani, Takiya-ota mahallasi
13.	“So‘fi Olloyor” ziyoratgohi	Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumani, Katta Vaxshivor qishlog‘i
14.	“Zangiota” majmuasi	Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Zangiota qishlog‘i
15.	“Pahlavon Mahmud” ziyoratgohi	Xorazm viloyati, Xiva shahri, Ichon qal‘a majmuasi